



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2024 - yil « 2 » dekabr 451 -son

Toshkent shahri

Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalar bilimni baholashdagi norozilik bo‘yicha apellyatsiya arizalarini ko‘rib chiqish va talabalarning dars mashg‘ulotlarida ishtirok etishini tartibga solish to‘g‘risida

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Oliy ta’lim sohasida korrupsiya xavfini kamaytirish yuzasidan 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek oliy ta’lim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan 01-23-205-sonli “Oliy ta’lim sohasida korrupsiya xavfini kamaytirish yuzasidan 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan yo‘l xaritasi” rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarga noto‘g‘ri qo‘yilgan baholarni tuzatish va talabalar tomonidan apellyatsiya berish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

Oliy ta’lim tashkilotlarida davomatni yuritish jarayonida talabalarning darsda ishtirok etmaganligini sababli qilish bo‘yicha aniq mezonlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (X. Sultanov), Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi:

a) “HEMIS” axborot tizimida professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarga noto‘g‘ri qo‘yilgan baholarni apellyatsiya natijalariga ko‘ra tuzatish imkoniyatini yaratsin. Bunda oliy ta’lim tashkilotlarida baholarni tuzatish uchun mas’ul sifatida o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor (direktor o‘rinbosari) belgilansin;

b) davomatni yuritish jarayonida talabalarning darsda ishtirok etmaganligini sababli etib belgilash bo‘yicha “HEMIS” axborot tizimida o‘zgartirishlar kiritish imkoniyatini yaratsin. Bunda oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarning darsda ishtirok etmaganligini sababli etib belgilash uchun mas’ul sifatida fakultet dekanlari yoki “Registrator ofisi” rahbari belgilansin.

4. Belgilab qo'yilsinki:

"HEMIS" axborot tizimida davomatni yuritish jarayonida talabalarning darsda ishtirok etmaganligini sababli qilish bo'yicha ma'lumotlarni fakultet dekanlariga taqdim etish uchun tyutorlar mas'ul hisoblanadi;

professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga noto'g'ri qo'yilgan baholarni tuzatish va talabalar tomonidan berilgan apellyatsiya natijasiga ko'ra baholarni tuzatish bo'yicha ma'lumotlarni o'quv ishlari bo'yicha prorektor (direktor o'rinbosari)ga taqdim etish uchun dekanlar mas'ul hisoblanadi.

5. Oliy ta'lim tashkilotlari rektorlari va direktorlari:

mazkur buyruqning mazmun-mohiyati bilan oliy ta'lim tashkiloti xodimlari, professor-o'qituvchilari va talabalar tanishtirilishini hamda mazkur buyruqda ko'rsatilgan vazifalarni mas'ullar tomonidan o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlasin;

mas'ullar tomonidan talabalarning baholariga o'zgartirish kiritishda amaldagi tartibga muvofiq nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoxud "5" (a'lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmasligiga alohida e'tibor qaratsin.

6. Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti (A. Xoliqov) bir oy muddatda mazkur buyruqda ko'rsatilgan vazifalarni amaliyotga to'g'ri tatbiq etilishi bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlarining o'quv ishlari bo'yicha prorektor (direktor o'rinbosar)lariga seminar tashkil etilishini ta'minlasin.

7. Ushbu buyruq ijrosining nazorati vazirning birinchi o'rinbosari Sh. Daliyev zimmasiga yuklansin.

Vazir



K. Sharipov

**NUSXA
ASLIGA TO'G'RI**

"TOSHKENT IRRIGASIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI" MILLIY TADQIQOT
UNIVERSITETI

K/R: 09-02-1992

2024-yil 4 -dekabr

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar va ixtirochilikning
2024-yil 2 12 2024 -son buyrug'iga
1-ilova



Professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga noto'g'ri qo'yilgan baholarni tuzatish va talabalar tomonidan apellyatsiya berish TARTIBI

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur tartib bilan "HEMIS" axborot tizimida professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga noto'g'ri qo'yilgan baholarni tuzatish va talabalar tomonidan apellyatsiya berish tartibi belgilanadi.

1.2. Noto'g'ri qo'yilgan baho – "HEMIS" axborot tizimida professor-o'qituvchilar tomonidan fanlar bo'yicha baholashda aslidagi bahodan farqlanuvchi qo'yilgan baho.

1.3. Noto'g'ri qo'yilgan baholar "HEMIS" axborot tizimida o'quv ishlari bo'yicha prorektor (direktor o'rinbosari) rolikan o'zgartiriladi.

II. Oliy ta'lim tashkilotlarida professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga noto'g'ri qo'yilgan baholarni tuzatish tartibi

2.1. Professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga noto'g'ri qo'yilgan baholar quyidagilar asosida o'zgartiriladi:

baholarni qo'ygan professor-o'qituvchilar tomonidan oliy ta'lim tashkiloti rahbari nomiga yozilgan tushuntirish xati;

noto'g'ri qo'yilgan baholarni o'zgartirish uchun o'quv ishlari bo'yicha prorektor (direktor o'rinbosari) nomiga yozilgan fakultet dekanining bildirishnomasi.

2.2. Baholarni asossiz o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

2.3. Baholarni tuzatish bildirishnoma kelib tushgan sanadan boshlab o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshirilishi lozim.

2.4. Talabaning ayni bir fan bo'yicha noto'g'ri qo'yilgan bahosini ikki marta tuzatishga yo'l qo'yilmaydi.

2.5. Texnik xatolik sababli noto'g'ri qo'yilgan baholarni uch kun muddatdan so'ng o'zgartirishga ruxsat etilmaydi. Bunda talabaga baholash natijasi e'lon qilingandan boshlab 24 soat davomida baholash natijasi bilan tanishish va aniqlangan xatolik bo'yicha murojaat qilish majburiyati yuklatiladi.

III. Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar tomonidan apellyatsiya berish tartibi

3.1. Talabalar bilimni baholash bo'yicha natijalardan norozi bo'lgan talabalar arizalarini ko'rib chiqish uchun fakultet dekani tomonidan apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

3.2. Apellyatsiya komissiyasi oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-pedagogik kadrlari, tajribali professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o'qituvchilari kiritiladi.

3.3. Talabalar bilimni baholash bo'yicha natijalardan norozi bo'lgan talabalar baholari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida apellyatsiya komissiyasiga shikoyat qilish huquqiga ega.

3.4. Talabaning apellyatsiya arizasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

3.5. Apellyatsiya komissiyasi shikoyatni 48 soat ichida ko'rib chiqadi hamda natijasi bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

shikoyatni asosli deb hisoblash hamda uni qanoatlantirish to'g'risida;

shikoyatni asossiz deb hisoblash hamda uni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida.

3.6. Apellyatsiya komissiyasi qarori shu kunning o'zida talabaga ma'lum qilinadi.

3.7. Apellyatsiya komissiyasining shikoyatni asosli deb hisoblash hamda uni qanoatlantirish to'g'risidagi qarori asosida baholar "HEMIS" axborot tizimida o'quv ishlari bo'yicha prorektor (direktor o'rinbosari) profilidan o'zgartiriladi.

IV. Yakunlovchi qoidalar

4.1. Mazkur tartibda belgilangan qoidalar bo'yicha nizolar qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining
2024-yil 2.12.2024-dagi 177-son buyrug'iga
2-ilova



**Oliy ta'lim tashkilotlarida davomatni yuritish jarayonida talabalarning
darsda ishtirok etmaganligini sababli qilish bo'yicha
ANIQ MEZONLAR**

| T/r | Sababli qilish bo'yicha aniq mezon | Asoslovchi hujjat | Qoldirilgan darslarni sababli deb hisoblashning eng ko'p muddati |
|------------|---|--|--|
| 1. | Talabalarning o'qishga vaqtincha layoqatsizligi (kasalligi) sababli | Ta'lim olayotgan shaxslar uchun mehnatga layoqatsizlik ma'lumotnomasi (095\ x shakl) | 30 kungacha* |
| 2. | Nogironligi mavjud talabalarning mavsumiy tibbiy ko'rikdan o'tishi sababli | Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi ma'lumotnomasi | Ko'rikdan o'tish muddatiga |
| 3. | Talabaning nikoh to'yi sababli | Talabaning nikoh to'yidan oldin bergan arizasi va nikoh tuzilganligi haqida guvohnoma | 10 kungacha |
| 4. | Talabaning yaqin (birinchi darajali) qarindoshining to'yi yoki vafoti sababli | Talaba arizasi, asoslovchi hujjat | 5 kungacha |
| 5. | Talabaning homiladorlik davrining og'ir kechishi, tug'ruqqacha va tug'ruqdan keyingi ta'til sababli | Talaba doimiy ro'yxatdan o'tgan tibbiy muassasaning tibbiy ma'lumotnomasi, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma | 30 kungacha* |
| 6. | Talabaning turli xil musobaqalar va tadbirlarda qatnashishi sababli | Tegishli vazirlik, idoralarning so'rov xati yoki oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i | Tadbir muddatiga, 30 kundan ko'p bo'lmagan muddatga* |
| 7. | Tabiiy ofatlar yoki baxtsiz hodisalar sababli | Tegishli idoralar ma'lumotnomasi | Ma'lumotnomada belgilangan muddatlarga, 30 kundan ko'p bo'lmagan muddatga* |
| 8. | Xorijlik talabalarning viza muddatlarining tugashi sababli | Pasport nusxasi va xalqaro bo'lim bildirgisi | Viza olish muddatiga, 30 kundan ko'p bo'lmagan muddatga* |

Izoh.

* Qoldirilgan dars mashg'ulotlari bir semestr davomida 30 kundan oshgandan so'ng, sababli bo'lganligidan qat'iy nazar talaba belgilangan tartibda akademik ta'tilga chiqariladi yoki talabalar safidan chetlashtiriladi.

Qoldirilgan darslarning sababli ekanligini asoslovchi hujjatlar rasmiylashtirilgan yoki darslarga ishtirok etishi boshlangan kundan so'ng 10 kun muddatgacha taqdim etilganda inobatga olinadi.

Oliy ta'lim tashkiloti mazkur ilovada nazarda tutilganidan boshqa kuzatiladigan holatlarda talabalarning darsda ishtirok etmaganligini sababli qilish bo'yicha qo'shimcha mezonlarni belgilashi mumkin.

"HEMIS" axborot tizimida davomatni yuritish jarayonida talabalarning darsda ishtirok etmaganligini sababli etib belgilash dekan yoki "Registrator ofisi" rahbari tomonidan amalga oshiriladi, bunda asoslovchi hujjatlar tyutorlar tomonidan taqdim etiladi.